



INDIA'S APPROACH TO THE RUSSIA-UKRAINE CONFLICT: INTERACTIONS IN THE GLOBAL SYSTEM AND BALANCE OF INTERESTS

Ra'no Tuychiyeva

PhD in Political Science, Doctoral Candidate

Institute for Youth Issues Research and Training of Promising Personnel

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: rano-tuichiyeva@mail.ru

ABOUT ARTICLE

Key words: Russia-Ukraine conflict, India's foreign policy, geopolitical interests, international system, neutral stance, energy security, global balance.

Received: 20.03.25

Accepted: 22.03.25

Published: 24.03.25

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of India's political approach in the context of the Russia-Ukraine conflict. In particular, it examines India's neutral stance, the geopolitical and economic factors influencing its formation, as well as its aspiration to maintain balance within the international system. The article explores India's relations with Russia, Ukraine, and Western countries, along with key aspects such as energy security and military cooperation. The research findings contribute to a better understanding of India's role in global politics.

ROSSIYA-UKRAINA MOJAROSIDA HINDISTON YONDASHUVI: GLOBAL TIZIMDAGI O'ZARO TA'SIR VA MANFAATLAR O'RTASIDAGI MUVOZANAT

Ra'no To'ychiyeva

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori, doktorant

Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlar tayyorlash instituti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: rano-tuichiyeva@mail.ru

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Rossiya-Ukraina mojarosi, Hindiston tashqi siyosati, geosiyosiy manfaatlar, xalqaro tizim, neytral pozitsiya, energetika xavfsizligi, global muvozanat.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Rossiya-Ukraina mojarosi sharoitida Hindistonning siyosiy yondashuvi har tomonlama tahlil qilinadi. Xususan, Hindistonning neytral pozitsiyasi, uning shakllanishiga ta'sir qiluvchi geosiyosiy va iqtisodiy omillar, shuningdek, xalqaro tizimdagi muvozanat saqlashga intilishi yoritiladi. Maqolada Hindistonning Rossiya, Ukraina va G'arb davlatlari bilan

munosabatlari, shuningdek, energetika xavfsizligi va harbiy hamkorlik singari muhim jihatlar ham o'rganiladi. Tadqiqot natijalari Hindiston tashqi siyosatining global maydondagi o'rini tushunishga hissa qo'shadi.

ИНДИЙСКИЙ ПОДХОД К КОНФЛИКТУ РОССИЯ-УКРАИНА: ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ В ГЛОБАЛЬНОЙ СИСТЕМЕ И БАЛАНС ИНТЕРЕСОВ

Раъно Туйчиева

Кандидат философских наук по политическим наукам

Институт изучения проблем молодежи и подготовки перспективных кадров

Ташкент, Узбекистан

E-mail: rano-tuichiyeva@mail.ru

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: конфликт Россия-Украина, внешняя политика Индии, геополитические интересы, международная система, нейтральная позиция, энергетическая безопасность, глобальный баланс.

Аннотация: В данной статье проводится всесторонний анализ политического подхода Индии в условиях конфликта между Россией и Украиной. В частности, рассматривается нейтральная позиция Индии, геополитические и экономические факторы, влияющие на ее формирование, а также стремление сохранить баланс в международной системе. В статье изучаются отношения Индии с Россией, Украиной и странами Запада, а также такие важные аспекты, как энергетическая безопасность и военное сотрудничество. Результаты исследования способствуют лучшему пониманию роли индийской внешней политики на глобальной арене.

Kirish

Rossiya-Ukraina mojarosi zamonaviy xalqaro munosabatlarda muhim burilish nuqtasi bo'lib, global tizimning o'zgaruvchan tabiatini aks ettiradi. Ushbu mojarro xalqaro huquq, diplomatiya va geosiyosiy manfaatlar o'zaro to'qnashadigan muhitda yuzaga kelgan. Turli davlatlarning mazkur mojaroga nisbatan tutgan pozitsiyalari ularning tashqi siyosiy strategiyasi va milliy manfaatlarini ochib beradi. Shu nuqtai nazardan, Hindistonning pozitsiyasi alohida e'tiborga loyiqdir. Hindiston dunyoning eng yirik demokratiyasi va iqtisodiy jihatdan tez rivojlanayotgan davlat sifatida xalqaro munosabatlarda tobora muhim o'rin egallamoqda. Bir tomondan, Hindiston Rossiya bilan tarixiy hamkorlik va strategik sheriklik aloqalarini saqlab qolishga intiladi. Ikkinchi tomondan, u G'arb davlatlari, xususan, AQSh va Yevropa Ittifoqi bilan savdo-iqtisodiy va texnologik hamkorlikni rivojlantirishga harakat qilmoqda. Bu esa

Hindiston uchun geosiyosiy manfaatlar o'rtasida muvozanat saqlash zaruratini yuzaga keltiradi. "Hindistonning Rossiya-Ukraina mojarosidagi neytral pozitsiyasi uning xalqaro maydondagi mustaqil siyosatini aks ettiradi. G'arb davlatlarining bosimiga qaramay, Hindiston na Rossiyani tanqid qilgan, na Ukrainani qo'llab-quvvatlagan. Bu pozitsiya Hindistonning tarixiy betaraf tashqi siyosati bilan uyg'un bo'lib, xalqaro munosabatlarda mustaqillikni saqlashga qaratilgan. Bosh vazir N. Modi va Rossiya prezidenti Putin hamda Ukraina prezidenti Zelenskiy bilan olib borgan muzokaralari Hindistonning tinchlik va muloqotni rag'batlantirishga intilishini ko'rsatadi" deya ta'kidlaydi Adil Ahmed Shairgojri [1]. Maqolaning maqsadi – Rossiya-Ukraina mojarosi sharoitida Hindiston tashqi siyosiy strategiyasini tahlil qilish, uning neytral pozitsiyasining sabablarini aniqlash va xalqaro tizimdagi o'rnini baholashdir. Tadqiqot doirasida Hindistonning geosiyosiy va iqtisodiy manfaatlari, xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlari hamda kelajakdagi tashqi siyosiy yo'nalishlari o'rganiladi.

Metodlar

Tadqiqotda tahliliy va qiyoslash usullari qo'llanildi. Ilmiy maqolalar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va statistik ma'lumotlar asosida Hindistonning neytral pozitsiyasi, uning sabab va oqibatlari o'rganildi. Shuningdek, Rossiya, Ukraina va G'arb davlatlari bilan o'zaro munosabatlar bir-biriga solishtirilgan holda tahlil qilindi.

Natijalar

Rossiya-Ukraina mojarosi boshlanganidan so'ng, Hindistonning neytral pozitsiyasi xalqaro hamjamiyat tomonidan diqqat bilan kuzatildi. 2022-yil 2-mart kuni BMT Bosh Assambleyasida Rossiyaning harbiy harakatlarini qoralash bo'yicha rezolyutsiya qabul qilindi: 141 davlat qo'llab-quvvatladi, 5 davlat qarshi chiqdi va 35 davlat, jumladan Hindiston betaraf qoldi. Hindiston Tashqi ishlar vaziri Subrahmanyam Jaishankarning ta'kidlashicha, mamlakat o'z milliy manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yadi, ayniqsa energiya xavfsizligi va mintaqaviy barqarorlikni saqlash muhim omillardan biridir [8].

Neytral pozitsiyaning asosiy sabablari orasida Hindistonning Rossiyadan qurol-yarog' va energetik resurslarga bo'lgan qaramligi alohida o'rin tutadi. 2022-yilda Hindiston Rossiyadan 33 million tonnadan ortiq neft import qilgan bo'lib, bu avvalgi yilga nisbatan 10 barobarga ko'pdir [5]. Shu bilan birga, Hindiston Rossiya bilan qurol-yarog' sohasida ham yaqin aloqalarga ega, jumladan, harbiy texnikaning 60-70 foizi Rossiya texnologiyalariga asoslangan [4].

Mutaxassislar fikriga ko'ra, Hindistonning neytral pozitsiyasi strategik muvozanatni saqlashga qaratilgan pragmatik yondashuvdir. Masalan, Xalqaro munosabatlar kengashi eksperti Ashley J. Tellis ta'kidlaydi [2], bu pozitsiya Hindistonning G'arb bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini cheklamaydi, balki Rossiya bilan uzoq muddatli strategik sheriklikni saqlashga

yordam beradi. Shu bilan birga, Hindiston o'zining global sahnadagi mustaqil pozitsiyasini mustahkamlashni davom ettirmoqda.

Hindiston va Rossiya o'rtasidagi strategik sheriklik Sovet Ittifoqi davridan beri davom etib kelmoqda. 1971-yilda imzolangan Do'stlik va hamkorlik shartnomasi ikki davlat munosabatlarini mustahkamladi. Bugungi kunda Rossiya Hindistonning eng yirik qurol-yarog' yetkazib beruvchilaridan biri bo'lib qolmoqda. Stokgolm Xalqaro Tinchlik Tadqiqotlari Instituti ma'lumotlariga ko'ra, 2017-2021 yillarda Hindiston qurol importining 46 foizi Rossiyaga to'g'ri kelgan. Ayniqsa, harbiy texnikaning 60-70 foizi Rossiya ishlab chiqargan texnologiyalarga asoslangan. 2018-yilda Hindiston Rossiyadan 5 ta S-400 havo mudofaa tizimini 5,43 milliard AQSh dollari qiymatida sotib oldi, bu esa AQShning Amerika raqiblariga sanksiyalar orqali qarshi turish to'g'risidagi Qonun (CAATSA) qonuni doirasidagi sanksiyalar tahdidini keltirib chiqardi [12].

Rossiya Hindistonning strategik sherigi sifatida nafaqat harbiy, balki geosiyosiy muvozanatni saqlashda ham muhim rol o'ynaydi. Masalan, Karnegi Xalqaro Tinchlik Jamg'armasi eksperti C. Raja Mohan ta'kidlaganidek, Hindiston Rossiya bilan hamkorlik qilgan holda, Xitoy bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarni cheklashga harakat qilmoqda [3]. Shuningdek, Bruking instituti tadqiqotchisi Tanvi Madan Hindistonning Rossiya bilan aloqalarini uning "strategik avtonomiyasi" tamoyili bilan izohlaydi. Ushbu tamoyil Hindistonga xalqaro maydonda mustaqil qarorlar qabul qilish imkonini beradi [13].

Adil Ahmed Shairgojriga ko'ra, Rossiya Hindistonning mudofaa sohasida muhim sherik bo'lib, 2017-2021 yillarda Hindiston qurollarining taxminan 46 foizi Rossiyadan import qilingan. Bu qaramlik Hindistonning Rossiyani tanqid qilishi yoki unga qarshi chiqishini cheklaydi. Ayniqsa, S-400 havo hujumidan mudofaa tizimi kabi zamonaviy harbiy texnologiyalar Hindistonning milliy xavfsizligi uchun muhim sanaladi. Xitoy va Pokiston bilan chegaralardagi ziddiyatlar sharoitida Rossiya bilan harbiy hamkorlik Hindiston uchun strategik ahamiyatga ega [1]. Shu bilan birga, Hindiston BRIKS (Braziliya, Rossiya, Hindiston, Xitoy, Janubiy Afrika) va ShHT kabi ko'p tomonlama tashkilotlarda Rossiya bilan birgalikda ishlash orqali global maydondagi ta'sirini oshirishga intiladi. The Diplomat jurnali mualliflari fikricha, Hindiston Rossiya bilan hamkorlik qilgan holda o'zining mintaqaviy ta'sirini kuchaytirishga harakat qilmoqda. Mazkur geosiyosiy sabablar Hindistonning Rossiya-Ukraina mojarosida betaraf qolishiga turtki bo'ldi [4].

Rossiya-Ukraina mojarosi boshlanganidan so'ng, Hindiston Rossiyadan neft importini sezilarli darajada oshirdi. 2022-yil davomida Hindiston Rossiyadan neft importini 33 million tonnadan ortiq darajaga yetkazdi, bu 2021-yilga nisbatan 10 barobar ko'pdir [5]. Rossiya

neftining arzonligi Hindiston iqtisodiyotini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynadi. Xalqaro valyuta jamg'armasi ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda Hindiston neft importi xarajatlari 90 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. Shu bilan birga, Hindiston Rossiyadan ko'mir va o'g'it kabi boshqa xom ashyolarni import qilish hajmini ham oshirdi [7].

Mutaxassislarning fikricha, Hindistonning iqtisodiy pragmatizmi uning tashqi siyosatida muhim o'rin tutadi. Bruking instituti tahlilchisi Tanvi Madan o'zining "O'zgaruvchan dunyo sharoitida Hindistonning strategik mustaqilligi" asarida Rossiya neftining arzonligi Hindiston uchun energiya xavfsizligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega ekanini ta'kidlaydi [13]. Shu bilan birga, Hindiston G'arb davlatlari bilan ham iqtisodiy hamkorlikni davom ettirmoqda. Masalan, 2022-yilda Hindiston va AQSh o'rtasidagi savdo hajmi 119 milliard dollarga yetdi, bu tarixiy rekord hisoblanadi [15]. Shuningdek, Yevropa Ittifoqi bilan savdo hajmi 120 milliard dollarni tashkil etdi.

Ekspertlarning ta'kidlashicha, Hindiston iqtisodiy manfaatlarini ustuvor qo'ygan holda, xalqaro maydonda o'zining mustaqil pozitsiyasini saqlab qolishga harakat qilmoqda. Karnegi xalqaro tinchlik jamg'armasi tadqiqotchisi C. Raja Mohan o'zining "Hindiston, Rossiya va Yevroosiyo geosiyosatining kelajagi" asarida Hindiston global iqtisodiy tarmoqlarga integratsiya qilinishi orqali strategik ta'sirini oshirayotganini ta'kidlaydi. Hindistonning pragmatik iqtisodiy yondashuvi mintaqaviy barqarorlik va global bozor sharoitlarida muvozanatni saqlashga xizmat qilayotgani qayd etiladi [3].

Hindiston o'zining tashqi siyosatini "Ko'p qutbli dunyo" tamoyiliga asoslaydi. Bu tamoyil Hindistonning faqat bir tomonlama ittifoqlarga tayanmasdan, turli davlatlar bilan pragmatik hamkorlikni rivojlantirishga intilishini anglatadi. Masalan, Hindiston bir vaqtning o'zida BRIKS va QUAD (AQSh, Yaponiya, Avstraliya, Hindiston) kabi qarama-qarshi manfaatlariga ega tashkilotlarning a'zosi. Bu esa Hindistonga global sahnada o'z pozitsiyasini mustahkamlash imkonini beradi.

Xalqaro munosabatlar bo'yicha mutaxassislar Hindistonning ushbu yondashuvini strategik pragmatizm deb ta'riflaydilar. Masalan, Garvard universiteti professori Jozef Nay o'zining "Kuch-qudrat kelajagi" asarida Hindistonning ko'p qutbli dunyoda ta'sir doirasini oshirishdagi rolini tahlil qiladi. U Hindistonning iqtisodiy salohiyati va diplomatik imkoniyatlari unga global miqyosda muvozanat saqlash imkonini berishini ta'kidlaydi [10].

Shuningdek, Xalqaro strategik tadqiqotlar instituti tadqiqotchisi Rahul Roy-Chaudhuri Hindistonning QUAD va BRIKS tashkilotlaridagi ishtirokini strategik diversifikatsiya deb ataydi. Uning fikricha, Hindiston ushbu ikki tashkilotda ishtirok etish orqali G'arb davlatlari va

rivojlanayotgan davlatlar bilan aloqalarni muvozanatlashtiradi [11]. Bu yondashuv Hindistonning xalqaro tizimda ta'sirchan o'yinchi sifatida tan olinishi uchun zamin yaratadi.

"Diplomat" jurnalida chop etilgan Jennifer Lind maqolasida esa Hindistonning "Ko'p qutbli dunyo" tamoyili global xavfsizlik va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi muhim omil sifatida qayd etiladi. Xususan, u Hindistonning Rossiya bilan energetika va mudofaa sohasidagi hamkorligi, AQSh va Yevropa bilan texnologik va savdo aloqalari xalqaro tizimdagi muvozanatni saqlashga xizmat qilishini ta'kidlaydi [9].

Biroq Hindiston G'arb davlatlari, ayniqsa AQSh tomonidan Rossiyadan uzoqlashishga chaqirilmoqda. Xususan, AQShning CAATSA qonuni doirasida Hindiston Rossiyadan S-400 raketa tizimini sotib olgani uchun sanksiyalar bilan tahdid qilmoqda. Shunga qaramay, Hindiston o'z milliy xavfsizligi va strategik manfaatlarini ustuvor deb bilib, bu bosimlarga bo'ysunmagan. Shu bilan birga, Hindiston AQSh bilan hamkorligini davom ettirish orqali Xitoyning Hind-Tinch okeani mintaqasidagi ta'sirini muvozanatlashtirishga harakat qilmoqda.

Hindiston Tashqi ishlar vaziri Subrahmanyam Jaishankar o'zining "Hindiston yo'li: noaniq dunyo uchun strategiyalar" kitobida Hindiston tashqi siyosatining mustaqillik, pragmatizm va global hamkorlikka asoslanishini ta'kidlaydi. U Hindistonning turli geosiyosiy bloklarga a'zligi mamlakatga o'z manfaatlarini himoya qilish bilan birga, global muammolarni hal etishda faollik ko'rsatish imkonini berishini qayd etadi [8].

Hindistonning ko'p qutbli dunyoda tutgan o'rni uning milliy manfaatlarini himoya qilish bilan birga, xalqaro barqarorlikka hissa qo'shadi. Shu bois Hindistonning global tizimdagi muvozanatni saqlashga qaratilgan strategiyasi zamonaviy xalqaro munosabatlar tadqiqotlarida alohida ahamiyatga ega.

Muhokama

Hindistonning Rossiya-Ukraina mojarosiga nisbatan yondashuvi uning milliy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan pragmatik tashqi siyosatining namunasidir. Bir tomondan, Hindiston Rossiya bilan strategik va iqtisodiy aloqalarni saqlab qolishga intiladi, chunki bu uning mudofaa va energetika xavfsizligi uchun muhimdir. Ikkinchi tomondan, Hindiston G'arb bilan hamkorlikni rivojlantirish orqali xalqaro maydonda o'z ta'sirini kuchaytirishga harakat qilmoqda.

Xalqaro munosabatlar bo'yicha mutaxassislar bu yondashuvni strategik muvozanat va pragmatizm sifatida baholaydilar. Masalan, Jozef Nay o'zining "Kuch-qudrat kelajagi" asarida Hindistonning ko'p qutbli dunyoda o'z pozitsiyasini mustahkamlashga intilishini global muvozanatning muhim elementi deb ta'kidlaydi [10]. Rahul Roy-Chaudhuri Hindistonning

QUAD va BRIKS kabi turli manfaatlarga ega tashkilotlardagi ishtiroki xalqaro maydondagi muvozanatni saqlashga xizmat qilishi haqida yozadi [11].

Iqtisodiy nuqtai nazardan, Tanvi Madan Hindistonning Rossiya bilan energetika sohasidagi hamkorligi energiya xavfsizligini ta'minlashda muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi [13]. Shu bilan birga, Hindiston G'arb davlatlari bilan savdo va texnologik aloqalarni rivojlantirish orqali o'z iqtisodiy ta'sirini oshirmoqda. Xususan, 2022-yilda Hindiston va AQSh o'rtasidagi savdo hajmi 119 milliard dollarga yetdi, bu esa ikki tomonlama iqtisodiy aloqalarning rivojlanayotganini ko'rsatadi.

Hindistonning Rossiya-Ukraina mojarosiga nisbatan neytral pozitsiyasi uning milliy manfaatlariga asoslangan pragmatik tashqi siyosatining natijasidir. Bu yondashuv xalqaro maydonda muvozanat saqlashga xizmat qilayotgani bois, Hindiston kelajakda global tizimdagi o'z o'rnini yanada mustahkamlashi mumkin.

Rossiya-Ukraina mojarosidagi muvozanatli yondashuvi Hindistonning xalqaro maydondagi mustaqil va mas'uliyatli o'yinchi sifatidagi imidjini mustahkamladi. Hindistonning pragmatik pozitsiyasi G'arb va G'arbg'a kirmaydigan davlatlar tomonidan tan olinadi. Hindiston ziddiyatlarda tomonlardan birini ochiq qo'llab-quvvatlamasdan, muvozanatni saqlash orqali o'zini xalqaro nizolarda vositachilik qila oladigan ishonchli davlat sifatida namoyon etmoqda. Bu esa Hindistonning BMT, BRIKS va G20 kabi xalqaro tashkilotlardagi nufuzini oshiradi.

Xulosa

Rossiya-Ukraina mojarosi Hindiston tashqi siyosati uchun murakkab sinov bo'ldi. Biroq, Hindiston pragmatik va muvozanatli yondashuvi orqali o'z milliy manfaatlarini himoya qilish bilan birga, xalqaro maydonda mustaqil o'yinchi sifatida o'z pozitsiyasini namoyon qildi. Geosiyosiy, iqtisodiy va diplomatik omillarni inobatga olgan holda Hindistonning neytral pozitsiyasi kelajakda uning xalqaro tizimdagi ta'sirini yanada oshirishiga xizmat qilishi mumkin. Shu bois Hindiston tashqi siyosiy strategiyasini tahlil qilish zamonaviy xalqaro munosabatlar tadqiqotlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Hindiston Rossiya bilan o'zining uzoq muddatli strategik aloqalarini saqlab qolish bilan birga, G'arb davlatlari bilan ham iqtisodiy va diplomatik hamkorlikni mustahkamlash orqali ko'p qutbli dunyoda o'z pozitsiyasini mustahkamlashga intiladi. Bu yondashuv Hindistonga xalqaro maydonda strategik muvozanatni saqlash va milliy manfaatlarini himoya qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, Hindiston global iqtisodiy tarmoqlarga integratsiyalashib, o'z iqtisodiy o'sishini ta'minlamoqda.

Hindistonning neytral pozitsiyasi uzoq muddatli strategik manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan ongli tanlovdir. Rossiya yoki G'arb tomonga haddan tashqari yon bosish

Hindistonning diplomatik moslashuvchanligini cheklashi mumkin. Rossiya bilan aloqalarni mustahkamlash Xitoyga qarshi muvozanatni saqlashga yordam beradi, G'arb davlatlari bilan hamkorlik esa Hindistonning Hind-Tinch okeani mintaqasidagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi. Pragmatik va muvozanatli yondashuv Hindistonga o'z xavfsizligi, iqtisodiy o'sishi va xalqaro ta'sirini mustahkamlash imkonini beradi.

Xalqaro tizimdagi muvozanat nuqtai nazaridan, Hindistonning BRIKS va QUAD kabi turli geosiyosiy bloklarda ishtirok etishi unga global muammolarni hal etishda muhim rol o'ynash imkonini beradi. Shu bilan birga, Hindiston tashqi siyosatida pragmatizm, mustaqillik va ko'p tomonlama hamkorlik tamoyillarini ustuvor deb biladi. Xulosa qilib aytganda, Hindistonning Rossiya-Ukraina mojarosiga nisbatan neytral pozitsiyasi uning milliy manfaatlariga asoslangan pragmatik tashqi siyosatining natijasidir. Ushbu yondashuv xalqaro maydonda muvozanat saqlashga xizmat qilayotgani bois, Hindiston kelajakda global tizimdagi o'z o'rnini yanada mustahkamlashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Shairgojri, A. A. *Russia vs. Ukraine War: India's Stance* / A. A. Shairgojri // Journal of Artificial Intelligence, Machine Learning and Neural Network. – 2022. – Vol. 2, No. 5. – Pp. 34–44. – DOI: 10.55529/jaimlnn.25.34.44. – Access Mode: https://www.researchgate.net/publication/362413661_Russia_vs_Ukraine_War_India's_stance
2. Tellis, A. J. *India's Russia Dilemma* / A. J. Tellis. – Council on Foreign Relations (CFR), 2022. – 25 p. – Access Mode: <https://www.cfr.org>.
3. Mohan, C. R. *India, Russia, and the Future of Eurasian Geopolitics* / C. R. Mohan. – Carnegie Endowment for International Peace, 2022. – 30 p. – Access Mode: <https://carnegieendowment.org>.
4. *India-Russia Relations: Strategic Ties Amid Global Shifts* // The Diplomat. – 2022. – 15 p. – Access Mode: <https://thediplomat.com>.
5. *India's Pragmatic Economic Approach Amid Global Shifts* // The Diplomat. – 2022. – 18 p. – Access Mode: <https://thediplomat.com>.
6. International Energy Agency (IEA). *Oil Market Report*. – 2023. – 60 p. – Access Mode: <https://www.iea.org/reports/oil-market-report>.
7. International Monetary Fund (IMF). *World Economic Outlook: Energy Security and Global Markets*. – 2023. – 100 p. – Access Mode: <https://www.imf.org>.
8. Jaishankar, S. *The India Way: Strategies for an Uncertain World* / S. Jaishankar. – HarperCollins, 2020. – 280 p. – Access Mode: <https://www.harpercollins.com>.

9. Lind, J. *India's Role in a Multipolar World* / J. Lind. – The Diplomat, 2022. – 22 p. – Access Mode: <https://thediplomat.com>.
10. Nye, J. *The Future of Power* / J. Nye. – Harvard University Press, 2011. – 320 p. – Access Mode: <https://www.hup.harvard.edu>.
11. Roy-Chaudhuri, R. *India's Strategic Diversification in a Multipolar World* / R. Roy-Chaudhuri. – International Institute for Strategic Studies (IISS), 2022. – 35 p. – Access Mode: <https://www.iiss.org>.
12. Stockholm International Peace Research Institute (SIPRI). *SIPRI Yearbook 2022: Armaments, Disarmament and International Security*. – 2022. – 800 p. – Access Mode: <https://www.sipri.org/publications/yearbook/2022>.
13. Madan, T. *India's Strategic Autonomy in a Changing World* / T. Madan. – Brookings Institution, 2022. – 40 p. – Access Mode: <https://www.brookings.edu>.
14. United Nations General Assembly (UNGA). *Eleventh Emergency Special Session on Ukraine, Resolution ES-11/1, 2 Mar. 2022*. – 2022. – 50 p. – Access Mode: <https://www.un.org/en/ga/eleventh-emergency-special-session>.
15. U.S. Census Bureau. *Trade in Goods with India*. – 2023. – 75 p. – Access Mode: <https://www.census.gov>.